



**EXENATSEYA (ECHINACEA) GULINING SHIFOBAXSH  
XUSUSIYATLARI.**

**Boynazarova Sayyora Ro`zikulovna**

TDMAU kata o`qituvchisi

[sayyoraboynazarova@gmail.com](mailto:sayyoraboynazarova@gmail.com)

99 678 65 43

**Umbarova Muxlisa Muxiddin qizi**

TDMAU talabasi

[muxlisaumbarova@gmail.com](mailto:muxlisaumbarova@gmail.com)

+998 91 584 83 06

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Exenatseya (Echinacea) gulining dorishunoslikda, parfimeriya va boshqa sohalarda dorivorlik xususiyati haqida to`liq ma`lumot berilgan. Exenatseya (Echinacea) gulining qaysi oilaga mansubligi, qaysi sharoitda yaxshi yetilishi ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zi:** Exenatseya, dorivor, periparat, zararsiz, jahon,.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi “Dorivor o`simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda kasallilarni davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-251-son qarorining 2-ilovasida —Bir tuman — bir mahsulot tamoyili asosida dorivor o`simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan tumanlar ro`yhatida bir qator dorivor va ozuqabob o`simliklar va xususan Exinatseya o`simligining plantatsiyalarini Toshkent, Farg`ona, Andijon, Namangan viloyatlarida, shuningdek Respublikamizning barcha tumanlarda tashkil etish chora tadbirlariga alohida e`tibor berilgan. Barchamizga ma`lumki tabiiy dorivor o`simliklar xom-ashyosidan tayyorlanadigan preparatlari inson organizmiga zararsizligi, tarkibida mavjud vitaminlar, alkaloidlar, kumarinlar, glikozitlar, minerallar va boshqa moddalari bilan





odam organizmiga ijobiy taʼsir etib uning umumiy holatini yaxshilaydi hamda immunitetini kuchaytiradi.



Exenatseya (Echinacea) — bu Asteraceae (aylanagul) oilasiga mansub koʻp yillik oʻsimlik boʻlib, asosan Shimoliy Amerikada oʻsadi. U odatda binafsha echinatsiya (*Echinacea purpurea*) nomi bilan mashhur. Asosiy xususiyatlari: Tashqi koʻrinishi - Barglari uzunchoq, tishli boʻlib, gullari koʻpincha binafsha, pushti yoki oq rangda boʻladi. Gul markazi konussimon boʻlib, toʻq sariq yoki jigarrang rangda boʻladi. Boʻyi: Oʻsimlik odatda 60–150 sm gacha oʻsadi. Gullash vaqti: Yoz

oylarida gullaydi (iyun–avgust). Dorivor xususiyatlari: Exenatseya qadimdan tabobatda ishlatiladi: Immunitetni mustahkamlash: Sovuq va grippga qarshi vosita sifatida qoʻllanadi. Yalligʻlanishga qarshi: Teridagi yalligʻlanishlar va jarohatlarni davolashda ishlatiladi. Antibakterial va antivirus xususiyatlarga ega. Ishlatilish shakllari: Quruq oʻsimlik shaklida (choy yoki damlama tayyorlash uchun) Ekstraktlar (sirop, tomchi) Kapsula yoki planshetlar Eʼtiborli jihatlar: Allergiyasi bor odamlar ehtiyotkorlik bilan ishlatishi lozim. Homilador ayollar va bolalar uchun foydalanishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Exinatseya (*Echinacea purpurea* L. Moench) Qoqio,tdoshlar (Astraceae) oilasi vakili hisoblanadi. Asosiy vatani Shimoliy Amerikaning janubiy va sharqiy qismi boʻlgan bu oʻsimlikning asosan 9 ta turi uchraydi. Turning nomi yunoncha “kirpi” soʻzidan olingan. Turning nomini Dastlab Karl Linnay tavsiflab ularni *Rudbeckia* deb nomlagan. Keyinchalik ularni nemis botanigi Kornard Moench turni aniq tavsiflab berishga erishgan. Ulardan koʻpchiligi yovvoyi va madaniy holatda dekorativ va dorivorlik xususiyatlari uchun foydalaniladi. Morfologik jihatdan boʻyi oʻrtacha 1-1.5 metr ga yetadigan koʻp yillik, tik oʻsuvchi oʻsimlik. Gullari yirik yakka holatda





joylashgan, ikki jinsli boʻladi. Barglari yirik oʻtkirsimon, poyada ketma-ket joylashgan. Ildizlari qisqa ammo kuchli rivojlangan. Turkum haqida dastlabki maʼlumotlarni nemis olimi Konrada Menxema 1794 yildagi tadqiqotlari va K.S. Rafinesku-Shmalsaning 1819 yildagi Lepachis Rafin asarlarida uchratish mumkin. [2] Exinatseya tabiatda va ayniqsa asl vatani boʻlgan Shimoliy Amerikada keng tarqalgan va uni dastlabki madaniy holda yetishtirish ishlari 1692-yildan boshlagan. Rossiya Federatsiya xududlariga ushbu oʻsimlik faqatgina XIX asrning boshlarida manzarali oʻsimlik sifatida introduksiya qilingan. Exinatseya oʻsimligining introduksiyasi ustida olib borilgan ishlar dastlab 1946 yilda Ukrainaning (VILAR stansiyasi) da boshlangan. Tajriba uchun dastlabki materiallar yani oʻsimlik urugʻi 1945-yilda Germaniyadan olib kelingan.

Dorivor oʻsimliklarga boʻlgan talab doimo mavjud va bu talabni qondirish albatta mavjud tabiiy dorivor oʻsimliklarni oʻrganish, tabiiy zahiralarni aniqlash, madaniy holatda yetishtirish va chet el florasiga oid oʻsimliklarni introduksiya qilish bilan qondirish imkoniyatiga ega boʻlinadi. Bunday introdusent oʻsimliklardan biri hisoblangan dorivor Exinatseyaning asl vatani Shimoliy amerika xisoblanib, hozirgi kunda butun Yevropa, Rossiyava MDH davlatlarining koʻpchiligida hamda yurtimizda madaniy holda yetishtirish ishlari olib borilgan va davom etmoqda. Ushbu oʻsimlikka boʻlgan yuqori talabning asosiy sabablaridan biri bu oʻsimlikning immunitetni kuchaytirish xususiyatining mavjudligidadir. Bundan tashqari ushbu oʻsimlikdan tayyorlangan preparatlar turli xil jarohatlar va kuyishlarda ham keng qoʻllaniladi. Chorva mollarining ham maxsuldorligini oshirishda hissasi juda katta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qarorining 2-ilovasi. <https://lex.uz/docs/-6027139#-6028909>
2. Алёхин В.В. География растений.М 1950.
3. Баширова, Р. М. Шайдуллина Г. Г., Никитина Т. И. и др. –Уфа, 2000. – 44 с.





4. Худжаниязова. С. Морфобиологическая характеристика и биология цветения рудбекий и эхинаций в условиях Ташкента. Ташкент, 1964.
5. Foster, S. Echinacea: Nature's Immune Enhancer / S. Foster. – VT: Healing Arts Press, Rochester, 1991
6. Арифхонова М. М. Растительность Ферганской долины.– Ташкент: Фан, 1967.-

